



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKNI KELIB CHIQUISH SABABLARI VA SHART SHAROITLARINI BARTARAF ETISHDAGI ROLI (MAZMUN VA MOHIYATI)

Zakirova Adina Gulyamovna

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası
professori, yuridik fanlar doktori, professor

Abdug'aniyeva Elnoz Zokir qizi,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18045935>

Annotatsiya: Maqolada huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish haqidagi masalalari keng yoritilgan. Mazkur maqolada, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishda profilaktika inspektorlarining o'rni va ularning faoliyatini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan shuningdek profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan faoliyatini takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish profilaktika inspektorlari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va huquqbuzarliklarni kamaytirish sodir etilish sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishning samarali usullari, profilaktika inspektorlarining metodikasi va ular bilan bog'liq amaliy masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, profilaktika inspektorlarning huquqbuzarliklarni aniqlash, profilaktika tadbirlarini o'tkazish va tashkilotlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ilmiy asosda tahlil qilingan

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, profilaktika, sabab, shart-sharoit, omillar, jamiyat, "Xavfsiz shahar".

Huquqbuzarliklar jamiyatning barqaror rivojlanishi, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquq hamda erkinliklariga tahdid soluvchi salbiy hodisalardan biridir. Ularning oldini olish masalasi har bir demokratik davlat uchun dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasida ham huquqbuzarliklarning profilaktikasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyoda qancha davlat bo'lsa, barchasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik, korrupsiya kabi mamlakatning ijobiy o'zgarishlariga o'zining bevosita salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi illatlar mavjud va bu doimiy ravishda ularning sabablarini aniqlash, bartaraf etish yo'llarini o'ylab topish hamda qarshi kurashishni taqozo etadi¹.

¹ Jabborov A. Huquqiy madaniyat va jamiyat barqarorligi. – Toshkent: 2021.



Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bizning mamlakatimizda ham jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish dolzarb vazifa bo'lib, bu ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bir kun janjal bo'lgan uyda qirq kun baraka bo'lmaydi – deb bejiz aytishmagan dono xalqimiz.

Shu sabab, davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev, jinoyatchilikka qarsi kurashish, huquqbuzarliklarni oldini olish ishlari mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Jinoyatni aniqlash, uning negizini topish, huquqbuzarliklarni oldini olish, uni jilovlash mutasaddilarning eng asosiy vazifasidir”².

Jinoyatchiga jazo berishdan ko'ra, jinoyatni oldini olish barcha narsadan afzaldir. Bu yo'nalishda hamkorlikni kuchaytirish lozim bo'ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurash nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki barchamizning faoliyatimiz mezonini bo'lishi kerak. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham jinoyatchilikni oldini olishda katta ahamiyatga ega³.

Respublikamizda “Xavfsiz shahar” apparat-dasturiy kompleksi ishlab chiqilib, uning imkoniyatlaridan Toshkent shahrida keng foydalanayotganligi fikrimiz tasdig'i desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kelajakda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasini, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashning markaziy subyekti bo'lib qolishi asoslantirilgan.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 10-yanvar kuni Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 7-ichki ishlar bo'limiga tashrif buyurganida, jamoat tartibini va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida quyidagilarni ta'kidlagandi:

«O'zbekistonda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi.

Keyingi ikki yilda sohaga doir 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, ichki ishlar organlari barcha bo'g'inlarining tuzilmasi va vakolatlari qayta ko'rib chiqilib, xodimlarning 65 foizi aholiga yaqin bo'lishi uchun mahallalarda ishlaydigan bo'ldi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevral kunidagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.

³ Mahmudov B. Toshlar huquqiy tungi va profilaktika ishlari samaradorligi. – Samarqand: 2022



Asosiy e'tibor, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratildi. Buning uchun profilaktika inspektorlari soni qo'shimcha bir ming nafarga ko'paytirildi, ularning bevosita joylarda samarali xizmat o'tashi uchun munosib ijtimoiy-maishiy sharoit yaratib berildi.

«Xavfsiz shahar», «Xavfsiz turizm», «Xavfsiz xonadon» tizimlari joriy etilgani, 24 soat patrullik xizmati yo'lga qo'yilgani natijasida odamlarda «adolat va qonun ustuvorligi»ga ishonch paydo bo'ldi. Har bir huquqni muhofaza qilish organida jinoyatchilikning joyi va turi bo'yicha chuqur ma'lumot bo'lishi, buning uchun davlat idoralari, jamoat tashkilotlari muntazam birga ishlashi zarur.

Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, prokuratura – hammasi xalqqa xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, jamiyatda ham jaholatga qarshi ma'rifat kuchli bo'lishi lozim. Muhit shunday bo'lishi kerakki, hech kim jinoyatga qo'l ura olmasin. E'tirof etish kerakki, huquqbuzarliklarning bir qismi tayin bir ish joyiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilmoqda.

Bunday shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olishda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda gap ketganda, mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yuritish, tadbirkorlar oldida turgan muammolarni bartaraf qilish, ularga keng imtiyoz va imkoniyatlar berish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganligini misol qilishimiz mumkin.

Xususan, valyuta siyosatining liberallashtirilishi, mahsulotlarni eksport qilish shartlari yengillashtirilganligi, tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi takomillashtirilganligi ushbu sohani yanada rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Jinoyatchilikni oldini olishda mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi.

Shu bois, respublikamizda mahalla fuqarolar yig'inining «fidokor yoshlar» jamoatchilik tuzilmasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, sodir etilgan jinoyatlarni mahallada keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish profilaktik ahamiyatga ega. Negaki, jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquq tartibot organlarining emas, balki keng jamoatchilikning vazifasi bo'lmog'i zarur.

Hozirgi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan tashkil etilgan «Mahallabay» ishlash tizimi ham mazkur yo'nalishga bevosita aloqador ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunki «Mahallabay» ishlash tizimi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, band bo'lmagan aholining, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotin-qizlarning muammolarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka



o'rgatuvchi kurslarga yo'naltirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga amaliy ko'maklashishga, mahallalardagi muammolarni tezkorlik bilan hal etishga qaratilgan.


Hech kimga sir emaski, barcha sodir etiladigan huquqbuzarliklar, jinoyatlarning aksariyati ishsizlik, bekorchilikdan kelib chiqadi. Bekorchi odam nima qiladi? Doimiy daromad manbaiga ega bo'lmaganligidan, bekorchi bo'lganligidan vaqtini nomaqbul ishlarga sarflaydi. Bu bekorchilik sekin- astalik bilan huquqbuzarliklarni, jinoyatlarni keltirib chiqadi. Taraqqiy etib borayotgan zamonamizda kundan – kun yangi texnologiyalar ixtiro qilinib, insonlarning mushkulini osonlashtirmoqda. Lekin bu ijobiy o'zgarishlardan o'zining manfaati uchun salbiy tomonlama foydalanayotganlar ham yo'q emas. Olimlardan N.F. Kuznetsova fikricha: «Sabablar – bu jinoyatchilikni yoki muayyan jinoyatni bevosita keltirib chiqaruvchi, tug'diruvchi faol kuchdir. Shart-sharoitlar esa o'zi jinoyatni tug'dirma-da, lekin sabablarning yuzaga chiqishiga imkon beradi»⁴, bundan ko'rinadiki sabab va sharoit o'zaro bog'liq holda oqibat ya'ni huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi va ular o'rtasida sababiy bog'lanishlar mavjud, boshqa olim V.N. Kudryavsev ta'kidlashicha «Sababiy bog'lanish – bu ikki hodisa o'rtasidagi genetik aloqa bo'lib, unda bir hodisa (sabab) muayyan sharoitlarda boshqa hodisani (oqibatni) keltirib chiqaradi»⁵. Demak ushbu olimlar fikriga ko'ra sabab va sharoitlar o'zaro bog'liq bo'lsada ularning turli xil kombinatsiyalari har hil oqibatlarni keltirib chiqaradi, shu sababli profilaktika inspektorlari oqibatlarni o'rgangandan ko'ra ko'proq sabab va shart-sharoitlarni o'rganishiga hamda ularni joyida barvaqt bartaraf etishga ahamiyat berishlari lozim. Shu ma'noda olima A.I.Dolgova yondashuviga ko'ra «Jinoyatchilik sabablarini o'rganishda ijtimoiy muhit va shaxsning o'zaro ta'siriga asosiy e'tibor qaratish lozim, chunki jinoyat – muhitning shaxsga va shaxsning muhitga bo'lgan munosabati natijasidir»⁶. Bu yerda biz maxallada huquqiy tarbiyaning ham o'z o'rni borligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda bizningcha shuni alohida ta'kidlash lozimki sabab va shart-sharoitlar vaqt va makonda o'zgarib turadi, chunki hozirgi huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning ahvoli shuni ko'rsatyaptiki kiberjinoyatlar ko'payib ketyapti, biroq bu shu narsadan darak beradiki profilaktika inspektorlar mazkur turdagi huquqbuzarliklarni sabab va ularning yuzaga kelishiga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganishga va profilaktika

⁴ Кузнецова Н.Ф. Проблемы криминологической детерминации. – М.: МГУ, 1984. – С.34.

⁵ Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. – М.: Форум-инфра-М, 1998. – С.25.

⁶ Долгова А.И. Криминология: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2005. – С.184.



qilishga ahamiyat bermaganlar. Jumladan, hozirgi vaqtda ish haqlari, nafaqalar va boshqa pul mablag'lari plastik kartalariga tashlab berilmoqda. Bundan ayrim nopok insonlar boshqa birovlarini aldash, ishonchiga kirish yo'llari bilan ularning mablag'larini o'zlashtirish holatlari ham ko'payib borayotgani bizga ma'lum.

E'tibor qaratilmagan oddiy salbiy xatti-harakatlar huquqbuzarlikni, undan so'ng esa jinoyatni keltirib chiqaradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, huquqbuzarlikni aniqlashdan ko'ra, uning oldini olgan muhim. Bu borada tizimimizda, jumladan, profilaktika xizmati tomonidan joylarda, ya'ni, mahalla, muassasa, tashkilot hamda boshqa davlat organlari, shuningdek, mahallalar, maktab va boshqa ta'lim muassasalarida doimiy ravishda targ'ibot va tashviqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Qo'shimcha ravishda aytib o'tishimiz joizki, ichki ishlar organlarida, xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida bir qator huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va uning ishtirokida muhokama qilish profilaktik ahamiyatga ega. Negaki, jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquq tartibot organlarining emas, balki keng jamoatchilikning vazifasi bo'lmog'i zarur.

Hozirgi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan tashkil etilgan «Mahallabay» ishlash tizimi ham mazkur yo'nalishga bevosita aloqador ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunki «Mahallabay» ishlash tizimi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, band bo'lmagan aholining, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotin-qizlarning muammolarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi kurslarga yo'naltirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga amaliy ko'maklashishga, mahallalardagi muammolarni tezkorlik bilan hal etishga qaratilgan.

Hech kimga sir emaski, barcha sodir etiladigan huquqbuzarliklar, jinoyatlarning aksariyati ishsizlik, bekorchilikdan kelib chiqadi. Bekorchi odam nima qiladi? Doimiy daromad manbaiga ega bo'lmaganligidan, bekorchi bo'lganligidan vaqtini nomaqbul ishlarga sarflaydi. Bu bekorchilik sekin- astalik bilan huquqbuzarliklarni, jinoyatlarni keltirib chiqadi. Taraqqiy etib borayotgan zamonamizda kundan – kun yangi texnologiyalar ixtiro qilinib, insonlarning mushkulini osonlashtirmoqda. Lekin bu ijobiy o'zgarishlardan o'zining manfaati uchun salbiy tomonlama foydalanayotganlar ham yo'q emas. Jumladan, hozirgi vaqtda ish haqlari, pensiyalar va boshqa pul mablag'lari plastik kartalariga tashlab berilmoqda⁷.

⁷ Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 martdagi «Mahallabay» ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 152-son Qarori



Bundan ayrim nopok insonlar boshqa birovlarini aldash, ishonchiga kirish yo'llari bilan ularning mablag'larini o'zlashtirish holatlari ham ko'payib borayotgani bizga ma'lum. E'tibor qaratilmagan oddiy salbiy xatti-harakatlar huquqbuzarlikni, undan so'ng esa jinoyatni keltirib chiqaradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, huquqbuzarlikni aniqlashdan ko'ra, uning oldini olgan muhim.

Bu borada tizimimizda, jumladan, profilaktika xizmati tomonidan joylarda, ya'ni, mahalla, muassasa, tashkilot hamda boshqa davlat organlari, shuningdek, mahallalar, maktab va boshqa ta'lim muassasalarida doimiy ravishda targ'ibot va tashviqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Qo'shimcha ravishda aytib o'tishimiz joizki, ichki ishlar organlarida xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida bir qator huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ va muassasalar faoliyati ham tubdan takomillashtirildi.

Yuqoridagilarga asosan, yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish borasida o'ziga xos tajriba to'planganligini, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha institutsional va huquqiy asoslar yaratilganligini va bu borada ishlar davom etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurash yo'lida chiqarilayotgan har bir normativ hujjatlar, olib borilayotgan izchil ishlar mamlakatda fuqarolarning huquqlarini ta'minlash, ularning farovon yashashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, jamiyatda sog'lom muhitni yaratish hamda fuqarolarning huquqiy ongini oshirib borish natijasida huquqbuzarlik, jinoyat degan salbiy xatti-harakatlarni kamaytirishga, yo'qotishga qaratilgan⁸.

Huquqbuzarlik, jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo'lgan joyda baraka va rivojlanish bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining har bir chiqishlarida sohaga mas'ul bo'lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini topish va jazolash emas, balki jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib bergan holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishlashga alohida urg'u qaratishni ko'p bora ta'kidlab o'tgan.

Davlat organlari, jamoatchilik vakillari, mahalla faollari va boshqa nodavlat tuzilmalarning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini birlashtirish orqali ishlar ta'sirchanligini oshirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan har haftaning payshanba kuni – «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilanganligi va bugungi kunda joylarda bu amaliyot o'zining ijobiy samarasini berayotganligini ko'rishimiz mumkin.

⁸ <https://soh.uz/index.php?/site/view/news>



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarni sodir etilish sabablari va unga imkon bergan shart sharoitlarni bartaraf etishda huquqbuzarliklarni oldini olishdagi roli juda katta. Ularning faoliyatini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va fuqarolarni ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etishga undash orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishda samaradorlikni oshirish mumkin. Profilaktika inspektorlarining samarali ishlashi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish va huquqbuzarliklarni kamaytirishning asosiy yo'lidir.

Huquqbuzarliklarning oldini olish faqatgina jazolash choralari emas, balki ularning sabab va sharoitlari haqida aholiga muntazam ravishda habardorlik berishga asoslanishi lozim. Profilaktika inspektorlarining faoliyatini takomillashtirish huquqiy madaniyatni oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng jalb qilish, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va individual profilaktik yondashuvni kuchaytirish orqali samaraga erishiladi. Natijada huquqbuzarliklarning oldini olishda fuqarolar faolligi hamda jamiyat barqarorligi ta'minlanadi.

Adabiyotlar:

1. Jabborov A. Huquqiy madaniyat va jamiyat barqarorligi. – Toshkent: 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevral kunidagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
3. Mahmudov B. Yoshlar huquqiy ongi va profilaktika ishlari samaradorligi. – Samarqand: 2022
4. Кузнецова Н.Ф. Проблемы криминологической детерминации. – М.: МГУ, 1984. – С.34.
5. Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. – М.: Форум-инфра-М, 1998. – С.25.
6. Долгова А.И. Криминология: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2005. – С.184.
7. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 martdagi «Mahallabay» ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 152-son Qarori
8. <https://soh.uz/index.php?/site/view/news>





9. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЁШ АВЛОДНИ ТЕРРОРИЗМ ВА ЭКСТРЕМИЗМ ТАҲДИДЛАРИДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 134-140.
10. Атажанов, Ў. М. (2025). МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА УНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ. Научный Фокус, 3(30), 119-126.
11. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ОСТИДАГИ ШАХСЛАР БИЛАН ЯККА ТАРТИБДАГИ ПРОФИЛАКТИКАНИНГ ИЖТИМОЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 127-133.
12. АТАЖАНОВ, Ўткир Маматсалаевич, ЖАСУР, Ҳамидалиев Асадбек, et al. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ БОЗОР ОБЪЕКТЛАРИДАГИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ. Научный Фокус, 2025, vol. 3, no 30, p. 163-171.
13. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПРОФИЛАКТИКА ОБЪЕКТЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 184-190.
14. Атажанов, Ў. М. (2025). ҲАЁТГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ КРИМИНОЛОГИК САБАБЛАРИ ВА МАХСУС ПРОФИЛАКТИК ТАЪСИР ЙЎНАЛИШЛАРИ. Научный Фокус, 3(30), 191-197.
15. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич, and Ҳамидалиев Асадбек Жасур. "БОЗОРЛАР ҲУДУДИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 152-162.

